

“SHOHNOMAYI ANDALIB” QO‘LYOZMASINING TAVSIFI

Muxlisa Axrorjanovna Maxamatxonova

Tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhiti vakillaridan biri Andalibning “Shohnomayi Andalib” qo‘lyozma nusxasining tavsifi bayon qilinadi. Qo‘lyozmaning tashqi va ichki xususiyatlari o‘rganilib, uning umumiy tuzilishi yoritiladi. Hamda, qo‘lyozmada kelgan ayrim baytlarning qisqacha mazmuni bayon qilinadi.

Tayanch so‘zlar: muqaddima, basmala, hamd, na‘t, xoshiya, qo‘lyozma, kolofon.

Annotation: This article describes the manuscript version of Shohnomayi Andalib by Andalib, one of the representatives of the Kokand literary environment. The external and internal characteristics of the manuscript are examined, and its overall structure is highlighted. Additionally, the meaning of some verses from the manuscript is briefly explained.

Keywords: introduction, basmala, hamd, na‘t, marginal notes, manuscript, colophon.

Hozirda Andalibning lirik asarlari jamlangan qo‘lyozma manbalar asosan O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Andalibning ijod namunalarini uning shohnomasida, forsiyda bitilgan devonida va bir qancha bayozlarning ichida tarqoq holatda saqlanib qolgani bizga ma‘lum. Bu esa bizga Andalibning o‘z davrining taniqli shoiri bo‘lib, xalq og‘zida uning sherlari mashhur bo‘lganini anglatadi. Uning asarlarini tadqiq qilib, iste‘molga kiritish bizga o‘sha davr adabiy muhiti, uning siyosiy holati, xalqning orzu-kechinmalari kabi bir qancha qimmatli ma‘lumotlarni bizga xabarini berishi mumkin. Shu kabi maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun biz tadqiqot obyekti qilib, Andalibning ijod namunalaridan biri bo‘lgan, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Shohnomayi Andalib” asarining №696 nusxasini tanlab oldik.

“Shohnomayi Andalib” asarini tahlil qilishga kirishar ekanmiz, avvalo matnshunos oldida turgan vazifa - matn tarixini o‘rganishdan boshlaymiz. Matnshunos oldida, u o‘zi tadqiq qilayotgan mavzusiga oid qo‘lyozma va toshbosma manbalarni izlab topmog‘i, tadqiq doirasiga jalb etilgan manbalarni tavsiflash, tahlil qilish, manbalarni o‘zaro qiyoslash, ular orasidagi matniy tafovutlarni aniqlash, ular asosida matnning asosiy variantini yaratish kabi bir qancha kabi bir qancha vazifalar turadi. “Matn tarixini o‘rganishda matnshunos avvalo - matn tarixini tiklash, tadqiq doirasiga kirgan manbaning turli nusxalarini qiyosiy o‘rganish, tadqiq etish, ular asosida matnning asosiy variantini yaratish va ilmiy muomaaga kiritishdir”¹. Tadqiqot mavzusiga oid barcha manbalarni qo‘lga kiritgandan so‘ng, matnshunos avvalo, asar nomi, uning muallifi, qo‘lyozmaning muqovasi, qo‘lyozma nusxaning o‘lchami, varaqlar soni, qog‘ozi, yozuvi turi, siyohi, muhr yoki bezaklari, satriklar soni, poygirlarning qo‘yilishi, saqlanish holati kabi belgilarini bayon qilishi, hamda, asarning boshlanishi va tugashi, uning tarkibiy tuzilishi, basmala, hamd, na‘t qismlari, kolofon qismi, poygirlarning qo‘yilishi, hoshiyalar, asarni ko‘chirgan kotib, asar ko‘chirilgan yil kabi bir qancha ma‘lumotlarni aniqlab, qayd etib borishi lozim.

Shohnomayi Andalib asarining №696 raqamli qo‘lyozma nusxasi tavsifi

Ushbu qo‘lyozma manba qalin to‘q yashil qog‘oz bilan o‘ralgan bo‘lib. Jildi naqshinkor, eskirib ketgan. Atrofida qizil va qora xoshiyasi bor. Kitobning o‘lchami 27X16 sm. To‘plam umumiy 54 sahifadan iborat bo‘lib, avvalgi betdan 21-betgacha “Shohnomayi Andalib”, 22-betdan to kitob so‘ngiga qadar “Shohnomayi Mutrib” joylashtirilgan. To‘plam yaxshi holatda saqlangan, kitobning butunligiga shikast yetmagan. Qog‘ozlari silliq, sariq rangdagi Qo‘qon

¹ Сирождинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги кирралари. – Т.: Akademnashr, 2015. – Б.8.

qog'ozida bo'lib, matn qora va qizil siyohda nasta'liq xatida, chiroyli yozuvda ko'chirilgan. Qo'lyozmaning 1b va 9b-sahifasida kiril yozuvida "Узбекский Государственный Исследовательский Институт Библиотека отд.شمس Инв. №696 Гор Самарканд" deb to'rtburchak shaklidagi muhr ichiga yozilgan. Yuqoriga kichikroq to'rtburchak muhr ichiga Г.И.А.Уз.Отд.В.рук № 696 О'з.Д.К.Х deb yozilgan. Qo'lyozmadagi baytlar soni 512 ta bo'lib, har bir sahifaga 2 qatordan joylashtirilgan. Asar matni 638 qatordan iborat, 21b bet 9 qator, qolgan hamma betlar 15 qatordan iborat. Yangi betning birinchi so'zi poygir sifatida kitob so'ngiga qadar izchil qo'llanilgan. Qo'lyozmaning avvalgi sahifasiga qora qalamda betartib holatda arab yozuvida turli so'zlar yozilgan. Har bir varaqda qora qalam bilan qo'lyozma betlarining raqamlari qo'yib chiqilgan. Ayrim raqamlar o'chirilib, ustiga boshqa sonlar yozib qo'yilgan. Asar qora siyohda basmala bilan boshlanadi. Basmalarning tagiga qizil siyoh bilan "Shohnomayi Devonayi Andalib" deb yozilgan. Matnlarda qora siyohda yozilgan, ammo ayrim so'z boshlari qizil siyoh bilan yozilgan. Asarda hamd qismi yo'q. Basmalarning o'zi bilan cheklangan. So'ngra, noana'naviy ravishda mo'yni madhi orqali Rosulloh sallallohu alayhi vasallamning na'tlari bayon etiladi. Asar quyidagi bayt bilan boshlangan:

ایلی رقم ایمدی بر حکایت
مویم حجر فرایقیدین رءایت
بو گردش چرخدون غماز
بزلارگ جفانی قیلدی اغاز

Ushbu qo'lyozmaning ikki nusxasida yozuvlar ixtilofli bo'lgani uchun mo'ym so'zini tabdil qilish jarayonida muammo yuzaga chiqishi mumkin. Chunki ushbu nusxada "mim" harfidan so'ng "vov" harfi qo'yilgan bo'lsa, №596 nusxada "vav" harfi yo'q. Bundan tashqari №596 nusxada ikki "mim"ning orasidagi harfning nuqtalari yo'q bo'lgani uchun ushbu so'zni o'qishda mavhumlik paydo bo'lsa, №696 nusxada "vav"dan keyingi harf o'chirilgan va uning o'rniga "mim" harfi yozilgan. "Mim"dan oldin "yo" harfini unga qo'shib yozilganlik ehtimoli bo'lgani uchun bu so'zni "muyim" deb, yoki mimdan oldin "ha" harfini taqdir qilib "muhim" deb ham o'qish mumkin. Lekin ushbu qo'lyozma nusxani tabdil qilgan tarix fanlari nomzodi Hamidillo Lutfillayev va Sherali Qo'ldoshevlar ushbu so'zni "muni" deb tabdil qilganlar va matnning havola qismida "№596 raqamli qo'lyozmada muhim shaklida ifodalangan"²-deb, ta'kidlab o'tganlar. Biz bu so'zni "muyim" deya tabdil qilishlikni afzal deb bildik. Chunki matnning kirish qismida yoritilgan mavzu asosan "mo'yni firoqi" haqida bo'lib, undan so'ng to'g'ridan-to'g'ri asar mavzusini yoritishga o'tiladi. Shunga binoan bu so'zni "muyim" desak matnning mavzusi bilan bog'lagan bo'lamiz.

Asar matni asosan nazmda bitilgan. Asarda bir holatdan boshqa holatga ko'chish, yoxud Amir Nasrullo va uning qo'shinining qilmishlarini bayon qilish uchun bir qancha o'rinlarda nasrga murojaat etilgan. Asar muqaddimasida amirning Ho'qanddan "muborak mo'y"ni ham olib chiqib ketgani ham qisqacha bayon qilib o'tilgan. Kirish qismi yoritilgandan so'ng bevosita voqealar rivojini yoritishga kirishiladi.

"Shohnomayi Andalib"ning №696 qo'lyozma nusxasi haqidagi dastlabki tavsifiy ma'lumot Shodmon Vohidovning "Қўқон хонлигида тарихнавислик" kitobida zikr qilingan. Muallif o'z kitobida qo'lyozmaning tarkibiy tuzilishi, hamda kitobat xususiyatlariga doir qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Asarning tarkibiy tuzilishi haqida Shodmon Vohidov "Қўқон хонлигида тарихнавислик" kitobida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi:

"Asar tarkibi quyidagilardan iborat:

- So'z boshi.
- Sheralixon podshohi zolim (amir Muzaffarning) Ho'qandni olib, xonlarni boshini kesib, hamma xaloyiqni paymol qilib, uylarini toroj qilib ketgonini eshitib toqat qila turolmay xuruj qilib, viloyatni yana mang'it elidan olganlari;

² Хамидилло Лутфиллаев.Шоҳномаи Девона Андалиб. – Т.: Наврўз нашриёти, 2015, - Б: 5.

- Podshohi Buxoro o'rdasida davlat sharobidin mast va ishrat mayidan alast erdi, kunlardin bir kun arkoni davlati birla bazm orosta qilib o'lturib erdi, eshikdin bir qosid kirib salom qildi, ta'zim va tavoze' qilib zamini ubudiyat bo'sa qilib aytdikim: Bir oy bo'ldiki, mashriq tarafidan bir amiri dilovar xuruj qilib, Ho'qand viloyatini musaxxar qilibdur. Ibrohim parvonachini shahardan badarg'a qilib, hukumat taxtiga minib, Ho'qand viloyatini atrofiga qal'a bino qilibdur deb, so'zini tamom qildi. Bu xabari jonso'zni eshitib, mast erdi hushyor bo'ldi, uyquda erdi, bedor bo'ldi. G'azab birla lashkar yig'ib, Ho'qand viloyatini avvalgidan battarroq vayron qilib, ba hoki dahr yakson qilay deb ravona bo'lgani;
- Podshoh lashkari birla Saritol dashtida ko'p, najosatga botib, lashkariya ul sahroning badbo'yiligidan toqat qilolmay, podshohga arza berib, To'qaytefaga borib tushgoni, anda hayron-sarosima bo'lgoni;
- Buxoro amiri sulhu saloh uchun Sheralixon huzuriga yana elchi yuborgoni;³

Mazkur qo'lyozma nusxa №596 qo'lyozma nusxa bilan qiyoslansa, ushbu nusxada ko'pgina baytlarning tushirib qoldirilgani va ayrim baytning lafzlari o'zgarib qolgani ko'zga tashlanadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, mazkur qo'lyozma nusxa asl nusxadan ko'chirilmagan va aslga yaqinroq nusxa bu - №596 nusxa bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Ushbu qo'lyozmada ham poygilar izchillik bilan qo'yilgan. Lekin mazkur qo'lyozmaning kolofon qismi yo'q. Shuning uchun qo'lyozmani ko'chirgan kotib, asar ko'chirilgan joy va sanalar haqidagi ma'lumotga ega bo'lolmadik. Ammo Shodmon Vohidov asardagi ikkita tamg'a ichiga "Amali To'raxo'ja sahhof"⁴ deb yozib qo'yilganini ta'kidlagan. Lekin biz tamg'ani kuzatganimizda bu yozuvni topmadik.

Ushbu qo'lyozma nusxadagi xoshiya yozuvlarini o'rganish bizga, bu nusxa asl nusxadan ancha yiroq ekanligini bildirdi. Buni qo'lyozma xoshiyalarida yozilgan baytlarning ko'pligidan ham bilish mumkin. Chunki bu baytlar asl nusxadan imlosi o'zgartirilmay yozilgan №596 nusxada mavjud bo'lib, biz tavsiflayotgan mazkur qo'lyozma nusxada mavjud emas. Katta ehtimol bilan ushbu qo'lyozma nusxa №596 nusxadan keyinroq ko'chirilgan. Demak, xoshiyadagi yozuvlarni tahlil qilish matnning ko'chirilgan sanasini aniqlashda bizga katta yordam berishi mumkin. "Matnning sanasi bo'lmagan taqdirda matnshunos nusxalardagi tafovutlar, birlamchi matn varianti haqida xulosa chiqarishga qiynaladi. Qo'lyozma asarni yoki uning nusxasini sanalashtirish nusxaning tavsifiy belgilari, qog'ozi yoki hoshiyalardagi qaydlar vositasida taxminan belgilanishi mumkin. Sananing belgilanishi nusxalar tahriri va boshqa xronologik voqealarning matn ko'chirilishi bilan bog'liq jarayonlarga ta'sirini aniqlash uchun muhimdir"⁵. Xulosa qilib aytganda, ushbu qo'lyozma nusxaning kolofon qismi yo'q va unda ko'pgina baytlar tushib qolgan. №596 qo'lyozma nusxa esa asl variantga yaqin va unda mazkur baytlar mavjud. Demak, mazkur nusxa №596 nusxadan keyinroq ko'chirilgan. Qo'lyozmada tushib qoldirilgan baytlar 15 o'rinda, 5 a va b, 6a va b, 12b, 14a va b, 15 a va b, 16, 17, 18, 19, 20, 21 sahifalarning xoshiyalarida uchraydi. Xoshiyadagi yozuvlar qo'lyozmadagi yozuvdan biroz farqli va ular qora rangli qalam bilan yozilgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, tushib qolgan baytlarni kotibning o'zi yozmagan yoki kotib bu xoshiyadagi baytlarni matn bilan bir vaqtda ko'chirmagan. Xoshiyadagi yozuvlar sahifalarning turli taraflariga, goh sahifa yuqorisiga, goh sahifaning ostki qismiga, gohida o'ng va chap tarafiga betartib holda yozib ketilgan.

با قلعهك بولسه هر ولايت
كوب بولغيسى او شهرده آفت

Ushbu bayt 5a sahifaning xoshiyasiga yozilgan. Sheralixon yurt himoyasi uchun Qo'qon shahriga keladi va xon qilib saylanib mamlakat taxtiga chiqadi. Xon Amir Nasrulloning qayta hujumidan himoyalani choralarni ko'radi va o'z xalqiga shaharda qal'a qurishga ko'rsatma beradi va keyingi urush uchun jiddiy tayyorgarlik ko'radi. Xalq dono hukmdorning maslahatlariga amal qilib, tezda shaharda qal'a quradi. Sheralixonning tavsiyasi bilan qurilgan ushbu qal'a Amir Nasrulloning keyingi hujumlaridan himoyalanihd katta foyda beradi.

³ Шодмон Воҳидов. Қўқон хонлигида тарихнавислик. –Т. Академик нашр.-2010.-157

⁴ Шодмон Воҳидов. Қўқон хонлигида тарихнавислик. –Т. Академик нашр.-2010.-157

⁵ Matnshunoslik fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. – T.:2019, - B.65

Qo'qonni qayta zabt qilib, uni avvalgidanda ko'proq vayron qilish uchun kelgan Amir Nasrullo va uning qo 'shinlari qal'ani ko'rib uzoq hayronlikda qoladilar va shaharni ichiga kirolmay Saritol dashtida sarson-sargardon bo'lib yuradilar. Tog' atrofidan shahar ichiga kirishga urungan askarlar esa xalqning qattiq qarshiligiga uchrab, og'ir yo'qotishlarga uchraydilar. Shoir asarning ko'pgina o'rinlarida Qo'qon xonini madh qilib o'tgan. U Sheraxlonni "dilovar" – ya'ni, "jasur", "shijoatli", "dono" podshoh, deya ta'riflaydi.

Qo'lyozmaning 15b-sahifasidagi xoshiya qismiga bitilgan quyidagi misralar ham bizni e'tiborimizni tortadi:

خر ایلادی نعمت خدانی

پامال قیلیب برنج ناننی

Shoir ushbu misralarda Buxoro amiri va mang'it elining qilmishlarini qoralab, ularning jirkanch suratlarini tasvirlab beradi. Ular garchi o'zlarini musulmon xalq deb bilsalarda, Xaq Taolodan qo'rqmay, Allohning ne'matlarini xor qiladilar va o'z maqsadlari yo'lida musulmon birodarlarini hatto, ayollar va bolalarni ham ayab o'tirmaydilar. Bunga Nodirabegim va uning nabiralari ustida sodir bo'lgan fojealar ham yaqqol misol bo'la oladi. Shaharga kirgan mang'it qo'shinlari shaharni vayron qilib, boyliklarni talab, muqaddas kitoblarni ham o'zlari bilan birga olib ketadilar. Qo'qon xonligida saqlanayotgan Rosululloh sallollohu alayhi vasallamga nisbat berilgan muborak mo'yni ham olib ketadilar va xalqning boshiga og'ir soliqlarni soladilar. Shahardan tashqarida bo'lgan, xon urug'laridan biri sanalmish Sheraxlonga bu mudhish fojealarning xabari yetib keladi va u darhol Vatan himoyasi uchun Qo'qonga yuzlanadi. Xalq uning yordami bilan Amir Nasrullo tayin qilib ketgan amaldorlardan xalos bo'ladi va Sheraxlon dilovarni taxtga chiqaradi.

Ushbu qo'yozma nusxa yozuvi 596 nusxa yozuvidan ko'ra birmuncha chiroyli. Qo'lyozmada ikkita asar, "Shohnomayi Andalib", so'ngra Shohnomayi Mutrib asari yozilgan. Shohnomayi Andalib asarining matni quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

کورسا تماپوزین بزه دورباره

کوپ قلدی یراگیمزنی پارا

والله اعلام بالصواب

تمت الكتاب بعون ملك الوهاب

Xulosa qilib aytganda, mazkur qo'lyozma yaxshi holatda saqlangan. Asarning ko'chirilgan sanasi yozilmagan va kolofon qismlari yo'q bo'lsada, xoshiyadagi to'g'irlab yozib ketilgan baytlar, so'zlardagi o'zgargan qo'shimchalar mazkur asarni asl nusxadan birmuncha keyinroq yozilganini bizga ma'lum qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги кирралари. – Т: Akademnashr, 2015.
2. Ҳамидилло Лутфиллаев. Шохномаи Девона Андалиб. – Т.: Наврӯз нашриёти, 2015.
3. Шодмон Воҳидов. Қўқон хонлигида тарихнавислик. –Т. Академик нашр.-2010.
4. Matnshunoslik fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. – Т.:2019.
5. О 'ZFA ShI, №696, "Shohnomayi Andalib".
6. <https://youtu.be/b5-exeRYMjk?si=-HhVSNZbapFhwy9o>
7. Хайруллаев, Х. З. (2012). Об иерархических отношениях между языковыми единицами. Вестник Челябинского государственного университета, (6 (260)), 134-137.
8. Хайруллаев, Х. (2008). Нутқ бирликларининг поғонали муносабати.
9. Bushuy, T., & Khayrullaev, K. (2022). Life of word during coronavirus. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(8), 19-28.
10. Хайруллаев, Х. (2019). Об особенностях изучения объекта речевой лингвистики. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 17-20.